

1-mavzu. «O'SIMLIKSHUNOSLIK FANINING XUSUSIYATI VA AXAMIYATI».


Reja:

1. O'simlikshunoslik fanining axamiyati, fanning maqsadi va vazifalari
2. O'simlik turlarining shakllanish sharoiti va biologiyasi.
3. Dala ekinlarini guruxlarga bo'linishi.
4. O'zbekiston o'simlikshunosligi

1. O'simlikshunoslik-qishloq xo'jaligining asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, axoli uchun oziq-ovqat maxsulotlari, chorvachilik uchun yem-xashak va ko'pgina engil sanoat tarmoqlari uchun xom-ashyo etishtirish maqsadida ekin ekib o' stirish va tabiatda yovvoyi xolda o'sadigan o'simliklardan foydalanish masalalari bilan shugullanadi.

Bu tarmoqning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Eng avvalo, qishloq xo'jalik ishlab chiqarishining mavsumiyligi, sharoitni xar doim o'zgarib turishidir. qishloq xo'jaligida doimo yangi o'simliklar, navlar, yangi texnologiyalarning kirib kelishi tufayli bu soxadagi mutaxassislardan chuqur serqirrali bilim talab qilinadi.

O'simlikshunoslik chorvachilik bilan chambarchas bog'langan. Chorvaga talab qilinadigan ko'kat, dag'al va shirali ozuqalar o'simliklardan tayyorlanadi. O'simliklarga talab qilinadigan organik o' g'itlar chorvachilikdan olinadi.



O`simlikshunoslik fanining boshqa fanlar bilan bog`liqligi.

O'simlikshunoslik qishloq xo'jaligining asosiy tarmog'i bo'lib, dala ekinlari va urug'larning biologik va ekologik xususiyatlarini o'rganish, ma'lum tuproq va iqlim sharoitiga mos bo'lgan ilg'or texnologiyani ishlab chiqish va uni ishlab chiqarishda keng joriy etish natijasida mo'l va sifatli xosil olishni ilmiy va amaliy asoslab beradi.



Madaniy o`simliklarning kelib chiqish markazlari.

2. O'simlikdan yuqori xosil olishni ta'minlaydigan texnologiyalar yaratilganda eng avval o'simliklarning biologik xususiyatlariga asoslanadi. O'simlikning «biologiyasi» deb o'suv davrida o'simlikda bo'ladigan o'zgarishlar va rivojlanishi uchun talab qilinadigan sharoit tushuniladi. O'simlikning tashqi sharoitga talabi o'rganilganda, bunda uning issiqlikga, yorug'likga, suvga, ozuqaga va tuproqqa bo'lgan talabi xisobga olinadi. O'simlik turlari yoki genotip ma'lum bir tuproq va iqlim sharoitida shakllanadi va shu jarayonda o'simlikda ma'lum biologik xususiyatlar vujudga keladi. Demak, o'simlikning biologiyasini bilish uchun uning kelib chiqqan mintaqalarini bilmoq zarurdir. Bu ma'lumot juda muxim bolganligi uchun olimlar tomonidan tadqiqot qilinib, o'simliklarning 12-ta kelib chiqish markazlari aniqlangan.

1. Xitoy-Yaponiya markazi-soya, yumshoq bug'doy, marjumak.

2. Indoneziya-Janubiy Xitoy-suli, shakar qamish, meva va sabzavot ekinlari.

3. Avstraliya markazi-sholi, go'za, sebarga, tamaki.
4. Xindiston markazi- sholi, xind bug'doyi, go'za turlari, meva va sabzavot ekinlari.
5. O'rta Osiyo markazi- ko'k no'xat, mosh, yasmiq, no'xat, nasha, go'za turlari, qovun, ko'p yillik o'simliklar.
6. Old Osiyo markazi- bug'doy turlari, arpa, suli, javdar, ko'k no'xat, beda, zig'ir, sabzavot va meva ekinlari.
7. O'rta er dengizi markazi- suli, arpa, bug'doy turlari, zig'ir, karam, lavlagi, sabzi, sholgom, piyoz, sarimsoq, ko'knori, oq xantal.
8. Afrika markazi- jo'xori turlari, tariq, kanakunjut, sholi, bug'doy turlari, dukkakli ekinlar, kunjut, go'za turlari.
9. Ovroqpa-Sibir markazi- tolali zig'ir, duragay sebarga, beda turlari, meva va sabzavot ekinlari.
10. Markaziy Amerika- Makkajo'xori, loviya, qovoq, shirin kartoshka, maxorka, qalampir, ko'p yillik o'simliklar.
11. Janubiy Amerika - madaniy kartoshka, tamaki, pomidor, makkajo'xori turlari.
12. Shimoliy Amerika- arpa turlari, lyupin, kungaboqar, sabzavot va rezavor o'simliklar.

O'simliklarning kelib chiqishi, tarqalishi katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega. O'simlikshunoslik fani o'simliklarning dastlabki ekila boshlanishi, tarqalishi, qo'llanishi bo'yicha ma'lumotga ega bo'lishi kerak. O'simliklarning kelib chiqishi markazlarini bilish asosida biologiyasini, genetikasini va selektsiyasini tadqiqot qilib, shu o' simliklardan yuqori xosil etishtirishni boshqarishda va yangi navlarni yaratishda samaradorlikni oshirishga yordam beradi.

3. Dala o'simliklarning orasida insonga zarur bo'lgan maxsulotni etishtirish uchun xar xil o'simliklar ekilmoqda. Bu o'simliklarning tuzulishi, biologik xususiyati va etishtirish texnologiyasi xam xar xil.

Bu o'simliklarni o'rganish oson bo'lishi uchun guruxlarga bo'linadi. Dala ekinlarini tasnifi olinadigan maxsulotga qarab tuzilgan. Bu tasnif bo'yicha dala ekinlari 6-ta guruxga bo'lingan:

- 1) Donli ekinlar- Bu ekinlar o'z aro 3-ta biologik guruxlarga bo'linadi: a)

xaqiqiy don ekinlari (bug'doy, arpa, javdar, suli, tritikale), b) tariqsimon don ekinlari- (makajo'xori, jo'xori, tariq, sholi, marjumak), v) don-dukkakli ekinlar- (ko'k no'xat, maxalliy no'xat, loviya, soya, yasmiq, burchoq)

2) Yem-xashak o'tlar-bu gurux 4-ta biologik guruxlarga bo'linadi: a) ko'p yillik dukkakli o'tlar-beda, sebarga, bargak, qashqarbeda, b) ko'p yillik qo'ng'irbosh o'tlar- mastak turlari, oqso'xta, yerkak o't, yaltirbosh, ajriqbosh, v) bir yillik dukkakli o'tlar - shabdar, bersim, vika, g) bir yillik qo'ng'irbosh o'tlar - sudan o'ti, qo'noq, mastak

3) Tuganakmevali, ildizmevali va poliz ekinlar-bu gurux 3- ta biologik guruxlarga bo'linadi: a) tuganakmevali ekinlar-kartoshka, topinambur, batat, b) ildizmevali ekinlar- qand lavlagi, xashaki lavlagi, xashaki sabzi, xashaki sholgom v) poliz ekinlar- qovun, tarvuz, qovoq.

4) Moyli ekinlar -2-ta biologik guruxga bo'linadi: a) seryog'li o'simliklar-kungaboqar, maxsar, kunjut, er-yong'oq, moyli zig'ir, raps b) efirmoyli ekinlar-oq zira, qora zira, kashnich, arpabodiyon


5) Tolali ekinlar-bu gurux 3-ta biologik guruxga bo'linadi: a) tola urug'da rivojlanadi-go'za turlari. b) tola poya po'stlogida rivojlanadi-kanop, jut, zig'ir, rami, v) tola bargda rivojlanadi- tolali banan, Yangi Zelandiya zig'iri.

6) Narkotik o'simliklar- tamaki va maxorka.

4. O'zbekistonning xududida qadimdan beri bug'doy, arpa, beda, tariq, jo'xori ekilib kelinmoqda. Keng tarqalgan o' simliklardan go'za turlari, meva-sabzavot va poliz ekinlari ekilmoqda.

O'zbekiston o'z axolisini oziq-ovqat maxsuloti bilan to'la ta'minlash uchun o'simlikshunoslik tarmogini rivojlanishini jadallashtirmogini lozim. Qishloq xo'jalik ekinlaridan yuqori xosil etishtirish uchun bir qator muxim tashkiliy iqtisodiy chora-tadbirlarni amalga oshirish, ishlab chiqarishning moddiy texnika bazasini ancha mustaxkamlash, o'g'itlardan keng foydalanish, erlarning unumdorligini meliorativ va ekologik xolatlarini yaxshilash, yangi intensiv navlarni yaratish kabi ishlarni amalga oshishi lozim. O'zbekistonda go'za 1,5 mln.ga, donli ekinlar suvli

erlarda 1 mln., lalmi erlarda 300 ming ga ekilmoqda. 1998 yili O'zbekiston don mustaqilligiga yerishdi.



O'zbekistonda madaniy ekinlarning qishloq xo'jaligidagi ulushi.

Dala ekinlari biologiyasi va etishtirish texnologiyasi fanlarini o'rganish qishloq xo'jaligidagi muhim, dolzarb muammolarni hal qilishga imkon beradi. Bu fanlarning rivojlanishi jamiyat taraqqiyotiga ko'p jihatdan bog'liq.

Fan sifatida o'zining tadqiqot metodlariga ega. Dala, vegetatsion, dala laboratoriya, laboratoriya tadqiqot uslublariga ega. Tajribalar natijasida o'simliklarning yangi navlari, duragaylari, ularning biologiyasi, etishtirish texnologiyasi o'rganiladi. O'simliklarning tashqi omillarga bo'lgan talabi, ularning o'sishii, rivojlanishi, suv, oziqlanish rejimini boshqarish qonuniyatlari o'rganiladi va optimal variantlar amaliyotga joriy etiladi.

O'zbekistonda dala ekinlari biologiyasiga asoslangan holda etishtirish texnologiyasini takomillashtirish, aholini oziq-ovqat, chorvachilikni em-xashak, sanoatning ayrim tarmoqlarini xomashyo bilan ta'minlash maqsadida ekinlardan mo'l, sifatli hosil olish muhim ahamiyatga ega. Bozor iqtisodiyoti sharoitida, ishlab chiqarish munosabatlarining o'zgarishi, dehqon, fermer, shirkat xo'jaliklarining yuza kelishi tashkiliy-iqtisodiy chora- tadbirlarni amalga oshirish, ishlab

chiqarishning moddiy texnika bazasini mustahkamlash, tuproq unumdorligini oshirish, erlarni meliorativ holatini yaxshilash, yangi intensiv tipdagi navlar, duragaylarni yaratish, mahsulot etishtirishda ekologik muammolarni hisobga olish ishlari eng dolzarb muammoalardir. O'zbekistonda, qishloq xo'jaligining muhim tarmog'io`simlikshunoslikda, dala ekinlarini etishtirishning ilg`or, intensiv texnologiyalari ishlab chiqilmoqda, yangi navlar, duragaylar yaratilib, urug`chilik, urug`shunoslik sohasida ishlar takomillashtirilmoqda.

O`simlikshunoslik fanining vazifalariga quyidagi masalalarni o`rganish kiradi:

- ekinlarning xalq xo`jalik ahamiyati, ekilish maydonlari, hosildorligi, yalpi hosili, tarixi;
- ekinlar sistematikasi (oila, avlod, tur, kenja tur, turxil, nav, duragay);
- morfologik xususiyatlari (ildiz, poya, barg, gul, meva, urug`);
- biologik xususiyatlari (haroratga, namlikka, yorug`likka, tuproqqa, oziqa moddalarga talabi);
- navlar, duragaylarning tavsifi;
- ekinining almashlab ekishdagi o`rni, tuproqni ishlash tizimi, og`itlash tizimi, sug`orish tartibi, urug`larni ekishga tayyorlash, ekish muddati, chuqurligi.

Savollar:

1. O'simlikshunoslik fani qanday fanlar bilan bog'langan,?
2. Siz yashayotgan viloyatingizda qanday dala ekinlari ekiladi?
3. Nima uchun don-dukkakli ekinlar don ekinlar guruxiga kiritilgan?
4. Biotsenoz va fitotsenoz deb nimani tushunasiz?